

Iqboley FAYZULLAYEVA

# KOMILLIK - HAYOT MAZMUNI



Iqboly FAYZULLAYEVA

# KOMILLIK – HAYOT MAZMUNI

Qarshi  
“Nasaf” nashriyoti  
2018

*Fayzullayeva Iqboloy  
Komillik - hayot mazmuni/Iqboloy Fayzullayeva. Qarshi:  
"Nasaf" nashriyoti, 2018. 32 b.*

*Inson kamoloti kishilik jamiyati taraqqiyotining asosiy va eng muhim negizlaridan biri hisoblanadi. Zero, har bir fuqaroning barkamollik darajasi qanchalik yuqoriflashsa, yurt obodligi va qudroti ham shunchalik yuksaklashadi. Shu bilan birga, har bir insonning komillik sari intilishi uning shaxsiy hayoti farovonligida ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur risolada inson komilligi tushunchasi, shaxsning kamolot sari intilishi hayotning asosiy mazmuni ekanligi masalalari qalamga olingan. Muallif ilmiy izlanishlari borasida komillik tushunchasiga zamonaviy hamda aniq hayotiy nuqtai nazardan yondoshishga harakat qilgan.*

*Ushbu kitob falsafa fanlari nomzodi, Qarshi davlat universiteti professori Abdurahim Erkayevning ilmiy rahbarligida nashriga tayyorlandi.*

Taqrizchi:  
Xosiyat MAXMANOVA,  
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

© Iqboloy Fayzullayeva, 2018-yil.  
ISBN 978-9943-18-241-7 © "Nasaf" nashriyoti, 2018-yil.

## KOMILLIK HAQIDA

Ma'lumki, komillik so'zining o'zagi hisoblanmish "komil" so'zi arab tilida yetuk, to'liq, bekamu-ko'st degan ma'nobarni bibiradi. Komillik sisati faqatgina insonga nisbatan qo'llaniladi. Chunki yer yuzidagi tirik mavjudotlar orasida faqat odamzotgina aqlga ega bo'lgan yagona buniyodkor hisoblanadi.

Komil inson deganda har taraflama uyg'un rivojlangan shaxsni tushunamiz. Kundalik o'zaro suhbatlarda ko'pincha komil inson yo'q, u bir ideal degan so'zlarni eshitamiz. To'g'ri, dunyoda nuqson va kamchiliklardan xoli inson yo'q. Lekin ilmiy nuqtai nazardan yondoshganda, komil inson deganda to'lig'incha nuqsonsiz odam nazarda tutilmaydi. Komil inson deganda olamdag'i qandaydir ideal mavjudotni emas, balki ma'lum kamchiliklarga ega bo'lsa-da, lekin insonlar orasida jamiyat talablariga to'laroq javob beradigan, o'z kasbi korini yaxshi o'zlashtirgan, odamlar bilan, jamiyat bilan o'z manfaatlarini muvozanatga keltira oladigan, saxovatli, bag'rikeng, o'y-fikrlari, so'zi va amaliy ishlari ezgulikka yo'naltirilgan kishini tushungan ma'qul.

Komillik aniq va tarixiy tushuncha. U mazmunan o'zgarib, boyib, aniqlashib boradi. Chunki har bir davr, har bir jamiyat unga o'z talablarini qo'yadi. Bundan yuz yil avval o'z davrining ilg'or yutuqlaridan foydalanishni bilgan, komil hisoblangan shaxs bugungi AKT, kompyuterlardan foydalana olmasdi. Lekin AKT, kompyuterdan foydalanishni bilish bugungi kunning oddiy talabi, komillikka bevosita aloqasi kam. Ammo shu bilan birga, AKT va kompyuterda foydalanishni bilmaydiganlarni biz bugun komil shaxs deya olmaymiz.

Kishilik jamiyati mavjudki, odamlar buyuk maqsadlar sari intilib yashaydi va ularni amalga oshirishda komil insonlarga ehtiyoj sezadi. Jamiyat insonlar oldiga o'zining rivojlanish zaruriyatidan kelib chiqqan holda muayyan talablarni qo'yadi. Taraqqiyot va fan-texnika rivoji natijasida komil inson shaxsiga qo'yilgan talablar ham orta boshlaydi. Komil inson shaxsiga qo'yilgan talablarni umuminsoniy, milliy va tabaqaviy-kasbiy jihatdan klassifikatsiya qilish mumkin.

## KOMILLIK TO'G'RISIDAGI ILK TASAVVURLAR: MIFOLOGIYA, EPOS, "AVESTO"

Insoniyat jamiyati paydo bo'lganda, dastlabki urug'-jamoalarda boshqalarga nisbatan kuchliroq, jasurroq, jangchilik va ovchilik qobiliyati ustunroq kishi yetakchilik qilgan. Urug'-jamoalar kengayib, mehnat shakkllari murakkablashuvi jarayonida, ayniqsa, qabilalar boshqaruviga o'tilganda, yetakchiga nisbatan talablar yanada ortib, nafaqat harbiy jihatdan ustun, shuningdek, tashkilotchilik ko'nikmalari, tajribasi ustun, odamlarni ortidan ergashtira oladigan, dono, hurmat-e'tiborli kishilar tanlab olingan. Komillik tushunchasiga jamiyatning, xalqning koriga yaraydigan, og'irini yengil qiladigan, unga to'g'rri yo'l ko'rsatadigan, madaniyat beradigan, kasb-hunar o'rgata oladigan hamda har xil xavf-xatarlar va yovdan himoya qiladigan shaxs sifatida qaralgan. Xalq mifologiyasida bunday yondashuv o'zining aniq ifodasini topgan. Masalan, turkiy xalqlar mifologiyasida O'g'izzon xuddi shunday obraz. Mifologiyaning birlamchi asl variantida u ilohiy nuring va yerlik ayolning farzandi. Xalqiga ko'plab hunarlarni o'rgatdi, qonun-qoidalarni joriy qildi. Odamlar hayotini tartibga soldi va xavfsizligini ta'minladi. Yilqilar uyuriga qiron keltiradigan bir shoxli maxluqni o'ldirdi va hokazo. O'g'izzon o'zida komillik belgilarini mujassam etgan ideal shaxs. Mifologiyada va qahramonlik epos (doston)larida komillik ko'pincha ideallik darajasiga ko'tariladi. Lekin o'rta asrlar qahramonlik eposlarida bosh qahramonning ba'zi bir xatolari, kamchiliklari ham tilga olinadi.

Qadimgi va antik davr qahramonlari ideal, birorta ham nuqsoni bo'lмаган kishilardir. Agar biror xato qilsalar, u ham taqdiri azal hukmi tufayli yuz beradi. Odatda bu xato fojiali oqibatlarga olib keladi.

Qadimgi asotirlar qahramonlari "xaloskor qahramonlar" va "madaniy qahramonlar"ga bo'linadi. Xaloskor qahramonlar xalqini qo'rqinchli maxluqlardan, balo-qazolardan qutqarsa, madaniy qahramonlar qonunlar, axloqiy qoidalalar beradi, hunar va san'atga o'rgatadi. O'g'izzon obrazi har ikki xislatni o'zida birlashtirgan.

Yunon afsonalaridagi qahramon, Zevs bilan oddiy ayol Alkmenanining o'g'li Gerakl beqiyos kuchga ega komil shaxs sifatida

tasvirlanadi. U mislsiz 12 ta jasorat ko'rsatgan. Gerakl nemey sherini va ko'p boshli lerney ajdahosini o'ldirgan, erimanf to'ng'izini tirk tutgan, stimfol jodu qushlarini qirth tashlagan, amazonkalar malikasi lippolitaning kamariini olgan, podshoh Diomedni yengib yiqitgan va boshqa jasoratlar ko'rsatgan. Shuningdek, Anteyni yenggan, Prometeyni ozod qilgan. Gerakl haqidagi afsonalarda asosan insonning tabiatdag'i dahshatl kuchlarga qarshi kurashi aks etgan.

Afsonaviy Uruk hukmdori Gilgamish o'z zamonasining komil insoni bo'lgan. Alsonaga ko'ra, Gilgamish oddiy inson emas. U qudratli bo'lib, uchdan ikki qismi ma'bud, uchdan bir qismi odam ekan. Hukmdor sifatida Gilgamish juda qattiqqo'l ekan. Gilgamish do'sti Enkidu bilan butun xalqi uchun boqiy hayotni izlab bir qancha sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U boqiy hayotni izlashning foydasi yo'qligini, insonlarning o'lmas bo'lishlarining yagona yo'li komillikka, mukammallikka intilish ekanligini anglab yetadi.

E'tibor berilsa, eng qadimgi asotirlarda komil insonlar xudolarning yerlik ayollardan bo'lgan farzandlari sifatida tasvirlanadi. Boshqacha aytganda, ularda ilohiy va insoniy xususiyatlar birlashgan. Keyinchalik, din ta'sirida qadimgi asotirlar yo to'liq yo'qolib ketadi, yo kuchli deformatsiyaga uchrab, dinga moslashadi. O'g'izzon obrazi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Turkiy xalqlar afsonalarida O'g'izzon komil inson sifatida tasvirlanadi. Turkiy eli ikkinchi marta O'g'izzon zamonida musulmonlikka qaytadi. O'g'izzon Alanchaxonning evarasi edi. Bobosi Mo'g'ulxon, otasi Qoraxon musulmon emasdilar. O'g'izzon tug'ilgach, uch kechayu kunduz onasini emmaydi. Har kecha onasining tushiga kirib "Ey ona, musulmon bo'ling. Agar bo'lmasangiz, o'lsam o'lamanki, sizni emmayman", - derdi. Onasi o'g'lining rayiga qarab, Tangrining birligiga iymon keltiradi. Shundan keyin O'g'izzon onasini emadi. Onasi ko'rgan tushini va musulmon bo'lganini birovga aytmaydi. Chunki Qoraxon zamonida musulmonchilik va musulmonlar qattiq ta'qib etilardi. Bu davrlarda chaqaloq bir yoshga to'Imaguncha ism qo'yilmas edi. O'g'izzon bir yoshga to'lganda, otasi Qoraxon yurtga to'y berib, beklariga shunday deydi: "O'g'limiz bir yoshga yetdi. Endi unga ne ot

qo'yarsizlar?" Beklar javob bermasdan, bir yashar O'g'izxon tilga kirib, bunday deydi: "Mening otim O'g'izturur". To'yga kelgan barcha kata-kichik, yoshu qari bundan tang qoladilar. O'g'izxon o'zi tarbiya qilib, voyaga yetkazgan Qipchoqqa ko'p el va navkarlar berib, mojar, boshqird ellarini itoatda ushlashni buyurib, Don, Ica va Yoyiq daryolari havzalarini yurt qilib belgilab, uni o'sha yoo'qo yo'llaydi. Shuning uchun ham bu joylar Dashti Qipchoq deb nom olgan.

"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda ham komillik g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu turkum dostonlarida afsonaviy xalq bahodirlarining tug'ilishi va qahramonona yoshligi, ozodlik o'lkasi Chambil shahrining bunyod etilishi, Hasanxonning Chambilga kelishi va qirq yigitlarning uylanishi voqealari tasvirlanadi. Bunday dostonlarda vatanparvarlik, qahramonlik, sevimli yor sadoqati, ota-onasi va farzand burchi, birodarlik va do'stlik masalalarida babs yuritiladi. Go'ro'g'li islam davrida yaratilgan bois, unda qahramon endi xudoning o'g'li emas, balki suygan bandasidir. Politeistik dinlardan farqli, monoteistik islam yarim xudolarni tan olmaydi. Epos qahramonlarining komilligi ularning shaxsiy xislatlari va xudoga e'tiqodlari tufaylidir.

O'zbek xalq qahramonlik dostoni hisoblanmish "Alpomish" dostoni turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Ushbu doston xalqimizning bunyodkor inson haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Unda "bir kam to'qson" qalmoq alplarining qiyofalari mubolag'a vositasida tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Hammasing "kallasi kapaday, tepasi tepaday". Birining "shumurti yoqalab har tomon ketgan, ichida sichqonlar bolalab yotgan, izidan tushgan pishak olti oyda yetgan". Ikkinchisining "odam tushmas (tushunmas) aytgan tiliga, besh yuz quloch arqon yetmas beliga". Uchinchisi "oh ursa, olamni buzar tovushi, to'qson molning terisidan kovushi" va boshqalar. Qalmoq alplarining oshirib-toshirib, mubolag'ali tasvirlashdan asosiy maqsad Alpomish va uning do'sti Qurajonning qahramonligi va kuch-qudratini badiiy tasvirlash hamda ularni xalq ideali sifatida ko'rsatish edi.

Komil inson shaxsini shakllantirish masalasi barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Madaniy merosimizning ilk namunalardan biri, Zardushtiylik

dining muqaddas kitobi "Avesto"da komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta'kidlangan. *Ana shu uch xususiyat* aslida yetuk inson qiyofasining asosiy belgisi hisoblanadi.

"Avesto", shuningdek, "Bundaxishi"da aytishicha, ikki olam, yaxshilik va yomonlik olami bor. Yaxshilik olamiga Axura Mazda (Xurmuz), yomonlik olamiga Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'ttasidagi kurash Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Gershasp, Elikbek va boshqalar obrazlarida mujassamlashtirilgan.

Markaziy Osiyo va Eron xalqlari orasida qadimiy davrlardan keng yoyilgan afsonalardan biri "Kayumars"dir. Kayumars haqidagi asosiy manba "Avesto". Kayumars - Gaya Martan. Beruniy Kayumars haqidagi afsonani bayon qilgan. Mifologiyaga ko'ra, Kayumars yer yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'yo u Axura Mazda tomonidan yaratilgan va ikki vujuddan, ho'kizdan va odamdan tashkil topgan ekan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo'lgan Axriman Kayumarsni o'ldiradi. Kayumars jasadining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi. Odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi. Shunday qilib, Kayumars birinchi inson va insoniyat hayotining ibtidosi sifatida tasvirlanadi. Kayumars yozma adabiyotda qayta-qayta ishlandi. Jumladan, u Firdavsiyning "Shohnoma"sida kishilarni zulmatdan, g'orlarda yashashdan qutqarib, uy-joy va shaharlar bino qilgan qahramon, ya'ni madaniy qahramon sifatida tasvirlangan.

Yima (Jamshid) obrazi ham Kayumars kabi komil shaxs, najotkor qahramon sifatida tasvirlanadi. "Avesto"da bayon etilishicha, u adolatli hukmdor bo'lib, uning davrida qahraton sovuq va jazirama issiq ham, qarish va o'lim ham bo'lмаган ekan. U adolatli, yer yuzini kengaytirgan, chorvani, turli qushlarni ko'paytirgan, kishilarni balolardan saqlagan, uy-joylar qurib, ariqlar chiqargan hukmdor sifatida tilga olinadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> H. Allanberginov. "O'zbek adabiyoti tarixi". Ma'ruzalar matni. Nukus. 2011-y. 8-9-b.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI KOMILLIK HAQIDA

Komillik tushunchasi jamiyatning taraqqiyot darajasi va diniy ta'limotlar bilan uzviy bog'langan. Ijtimoiy munosabatlar ancha kuchli rivojlangan qadimgi Xitoyda Konfutsiy davridayoq komillik tushunchasi ancha aniqlashtirilgan, yangi axloqiy talablar bilan boyigan.

Konfutsiylik ta'limotining negizida ham komil inson g'oyasi votadi. Ushbu ta'limot har bir insonning besh oliy burchga, ya'ni insonparvarlik,adolat, haqiqat, burchga sadoqat va halollikka rioya qilishini uqtiradi. Konfutsiy o'z ta'limotida beshta oliy faoliyat va burchni to'la ado etishda aniq qonun-qoidalarga rioya etish zarurligini qayd etadi. Insonsevarlik, ya'ni o'zingga o'xshash har bir insonga, uning kim bo'lismidan qat'iy nazar, hamdardlik, har kimga bir xil mukofot yoki jazoning tayinligi; amaldagi qonunlarga bo'y sunish va e'tiqod qilinadigan dinda belgilangan urf-odatlarga ryoa qilish; haqiqatsevarlik, ya'ni yolg'on aralashgan har qanday narsadan, albatta, hazar qilish va nihoyat, har bir narsa borasida doimo halollik va sadoqat. Konfutsiy fikricha, mana shu munosabatlar va faoliyatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi butun insoniyat uchun baxtli turmush kechirish imkoniyatini yaratadi. Bunday ma'naviy faoliyatni amalga oshirishda asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat: nafsga berilmaslik; faoliyatning teng o'lchamliligi; barcha xatti-harakatlarda o'rtacha mezonni saqlash va o'rtachalikka ryoa qilish, hamisha va har bir ishda bosiq-vazminlik; shularning natijasi o'laroq, xotirjamlik; hovliqmaslik. Dono odam mana shunday ma'naviy kamolotga intilmog'i joiz. Har bir ishda vazminlik, bosiqlik bilan harakat qilishni, hech narsani haddan oshirib yubormaslikni Konfutsiy inson ma'naviyatining asosiy qoidalari sifatida qayd etadi.

Konfutsiy dono odamni shunday ta'riflaydi: "Haqiqiy dono odam ziyo fatga taklif qilinmasa, kelmaydi; o'zini ko'z-ko'zlashni istamaydi; taklif qilingach, boshqalarga o'xshab odob-axloq qoidalari dan, turmush shart-sharoitlaridan kelib chiqib, fikr yuritadi. Agar unga nisbatan e'tibor qilmayotgan bo'lsalar, u bundan zarracha g'am yemaydi, norozilik bildirmaydi. U ertadan kechgacha mutolaa bilan band bo'ladi. Uning intiladigan yagona

xosimasi bu – bilinadir, uning uchun eng shug‘ nomi bu donishmand degan xossining o‘si. Qonun va haqiqat uning dolomiy qurʼosish. Uning bilimlari nechog‘lik bepeyon bolmashni, u yana bilimini oshirishni o‘ylaydi. Odol-asloq qoldalariga qat’ly rinoyn qiladi, o‘rini nazorat qilishni bir lajha bo‘lmak susaytmaydi. Domo eslam xismatida jiddiy va qatiyath, ammu u barcha odam bilan hammasavg‘ xushmuomala va shuriso‘g‘, quenoq va do’stlariga mehnribon. U o‘lada ham hamma bilan bir sil muomalada, birovut erkaklab bosloq biroyga ola qaramaydi. Agar kimdir donishmandiga yomon se’s aytib, yo yomonlik qilib ko‘ngliga tegsa, u qabru g‘asabini bildirmaydi, achchig‘i kelmaydi. Domo odam qay holatda bo‘lmashi, el-yurtga odamlarga foydasini tegishini o‘ylaydi. Kimgaradir yorslami tegsa, u bilan maqtanib yurmaydi, ammu qilingan ish uchun minnatdorlik bildirishlарini sabr-toqat va chidam bilan, kamtarlik bilan kutib yuradi. Agar bu borada ham uni chetlab o’tsalar, rahmat aytib qo‘yishni unitsalar, u achchiqlanmaydi, hech kunga shukoyat qilmaydi. Halol odamlarning maqtovi, yaxshilik uning uchun eng a’lo mukofotdir. Agar uni maqtovlarga ko‘mib tashlasangiz, u mag‘urlanib ketmaydi, har doimigidek hamma bilan xushmuomala bo‘laveradi. U hasad, yaldoqlanish, xushnomad, birovdan nafratlanishni bilmaydi, hamma yerda, hamisha nurosa da yashayveradi. Shuning uchun ham unga hamma havas qildi, hurmatlaydi. Uning donishmandliginteg bosh manbalari mehr-muhabbat va butun odamsotning qayg‘u bittrobidi<sup>2</sup>.

Islam uyg‘onish davringning asoschilaridan birt, buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Forobiy insonga ta’rif berar ekan shunday yozadi: “Barcha hayvonlardan inson o‘z alohida xossalari bilan farq qiladi, chunki unda jon bor. Ana shu jondan kuch paydo bo‘lib, bu kuch tana a’zolari vositasida harakat qiladi va bundan tashqari unda shunday kuch borki, bu kuch tana a’zolari vositasisiz harakat qiladi. Bu kuch aqldir. Aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat, ruh bilan bog‘liqidir”<sup>3</sup>. Odamning qadr-

<sup>2</sup> K. M. Koryagin. “Konfutsiy”. Tarihy biografik ocherk. “Jahon asabiyoti” jurnali, 2015-yil mayabr ayi soni, 60-61-b.

<sup>3</sup> Abu Nasr Forobiy. “Fazill odamlar shahri”. I. “Yangi asr avlodli”, 2016-y 230-231-b.

qismati, aql-zakovati, ijodiy va bunyodkorlik imkoniyatiga yuksak baho bergan Forobiy uchun inson shuruchagi turi orqali komillikkha daxldor bo'lgan ijtimoiy faol mavjudot. Olim mazmun-ma'nosiz kechmasligi lozim. Bu hayot, avvalo, aqil orqali boshqarilishi, tashkil qilinishi, antq maqsadga yo'naltirilishi va albatta, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi zarur.

Forobiy uchun komillik tushunchasining eng muhim sifati va asosiy mezoni insonning o'zi yashab turgan davrdagi zatti etishidir. Forobiy komillikning asosiy mezoni, jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan. Insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidadir. "Baxtga esa, - devol alloma, - faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash orqaligina erishish mumkin".

Forobiy fikricha, inson komil bo'lishi uchun uning tafakkuri yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Tafakkur shu qadar bo'lishi kerakki, u insonga bir nimani xabar qilganda, inson shuurida ham, ongida ham o'sha narsa abadiy muhrilanib qolishi lozim.

Boshqa bir daho ajdodimiz, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi ma'rifikat, ilm-fan ham e'tirof qiluvchi irsiyat, ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiyadir<sup>4</sup>. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir. Beruniy fikricha, axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi, yaxshilik bilan yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezonlardir.

Beruniy daho olim sifatida irsiyatning hamda ijtimoiy muhitning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Bu ikki omil Beruniy gacha ham tan olingen bo'lsa-da, ammo ularga komillikkha

<sup>4</sup> Abdulla Sher "Axloqshunoslik", darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti. T. 2010-y.

erishishda asosiy belgilovchi omil sifatida qaralmagan. E'tiqod va tarbiya bilan cheklanilgan. Berunly komil inson muammosi bilan alohida shug'ullanmagan bo'lsa-da, uni ilmiy jihatdan yangi pog'onaga ko'tardi. Chunki aqliy salohiyati talab darajasida yuqori bo'lmaygan, zehni, qobiliyati o'rtacha kishini faqat tarbiya va diniy e'tiqod yordamida komil etib bo'lmaydi. Aqliy salohiyati yuqori, zehni, iste'dodi o'tkir kishini ham tegishli ijtimoiy muhitdan tashqarida komil etib tarbiyalash qiyin. Har uchala omilning birligigina insonni komillikka erishtirishi mumkin. Beruniyning yana bir o'ta muhim fikrini hisobga olish zarur. U amaliy tajribaga haqiqatni yuzaga chiqaruvchi omil deb qaragan. Komillik ham haqiqat kabi amaliy tajribada, ya'ni yaratuvchi mehnatda, odamlarning o'zaro munosabatlarida yuzaga chiqadi.

Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda, jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi. Bu bilan u antik davr, xususan Aflatun va Arastu qarashlarini, antik davr pedagogikasi talablarini hisobga oladi. Bundan tashqari Ibn Sino tabib sifatida jismoniy tarbiyaning inson salomatligi uchun ahamiyatini yaxshi bilar edi. Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning tarbiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi, muhabbat, mo'tadillik, aqlilik, ehtiyyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijodkorlik va boshqalarni kiritadi.

Ibn Sinoning "Risolai fil-ishq" asarida falsafa va pedagogikaning bosh muammosi – komil inson masalasi o'rta tashlanadi. Ibn Sinoning fikriga ko'ra, Yaratganga muhabbat odamni inson zoti qobil bo'lgan komillik darajasiga olib chiqadi. Ya'ni ruhning (qalbning) quyi qismlari uning oliy qismlari – ulug'vor va oljanob intilishlari ta'siriga tushganda ular fazilat kasb etadi. Bu o'rinda Ibn Sino insonga ruhning hayvoniy qismidan voz kechishni taklif qilmaydi. Aksincha, uni tarbiyalashni, ya'ni ruhning quyi, hayvoniy qismini oqilona qismga, olamiy aqlga bo'yundirish lozimligini aytadi<sup>5</sup>. Demak, inson komil bo'lishi uchun o'z hayvoniy intilishlari

<sup>5</sup> Abu Ali ibn Sino "Risolai fil-ishq" asari. "Sharq yulduzi" jurnali. M. Mahmudov va Z. Bahriiddinovlar tarjimasi.

quvvatini oly intilishlarga o'tkazishi lozim. Zamona viy falsafa til bilan aytganda, bunda sublimatsiya ro'y berishi kerak, zero, hech qachon fartshta bo'la olmaydi, unda illatlar mayjud va bu illatlar nafs tarbiyasi yordamida fazillatlarga aylanishi mumkin. Ibn Sinoning komil inson haqidagi bu konsepsiya *Allah* muhabbat – komillikka erishish faqat tarkidunyo chilik orqali emas, balki rostmana insoniy munosabatlar silsilasida ham o'zini namoyon qilishi mumkin, degan xulosani keltirib chiqaradi.

Yusuf Xos Hojib kishilik ma'naviyati tarixida birinchilardan bo'lib komil inson tushunchasini ko'tarib chiqdi. U komil insonni "tugal er" deb atagan. Mutafakkir kishining ma'naviy *yuksalishcha* ikki bosqichni ajratadi: birinchisi – balog'at; bunga, ixlos qilsa, har bir bilimli, o'qimishli kimsa erishivi mumkin. Kishi kamolotining ikkinchi bosqichi tugallikdir. Unga har kimsaning *yetishuvchi* mushkul. Adibning ta'kidlashicha, tugal erda ikki *sifat* uyg'unlashmog'i kerak: biri – bilim, ikkinchisi – uqush (*zakovat*). Ana shu sifatlari bilan kishi tugalikka erishadi:

Bu ikki biriksa, bo'lur er tugal,

Tugal er ajunug' tamam yer tugal<sup>6</sup>.

Yusuf Xos Xojib ijodining, qarashlarining bosh masalalaridan biri komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'zining asarlarida eng komil jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. U o'zining "Qutadg'u bilig" asarida komil inson insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, xushmuomalalik, himmatlik, tadbirkorlik, aqlu zakovat kabi ijobiy xislatlar egasidir, deb ta'kidlaydi.

XI asrda yashab ijod qilgan Kaykovus yirik davlat arbobi sifatida o'g'li Gilonshohga podshohlik, vazirlik kabi ulug' martabalaridan tortib, dehqonchilik ishlariyu dehqon odobigacha bo'lgan umuminsoniy masalalar haqida ta'lim beradi.

"Ey farzand, umid shulki, sen bu pandlarni qabul qilg'aysan va men otalik shartin bajo qilmish bo'lg'aymen. Bilg'ilki, jahon xalqlarining rasmi shuldurki, yelib-yugurib dunyoda biror narsa hosil qilmishman va mening yaxshi ko'rgon kishim sendirsan.

<sup>6</sup>Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig". Akademnashr. T. 2016-y. 39-b.

Menga rixlat vaqtı yovuq yetdi, dunyodin har nimaiki hosil qildim, sening oldingga qo'ydim, toki xudokom bo'lmag'aysan va berobilik yo'liga qadam qo'ymagaysan<sup>7</sup>, - deya o'g'liga murojaat qiladi.

Abdurahmon Jomiy ham o'z farzandi Ziyoruddin Yusufga nasihat qilar ekan, otasi faqat mashhur kishi bo'lgani uchun uning nomi, obro'si bilan maqtanmaslikni, balki uning nomiga munosib farzand bo'lib yetishishni talab qiladi. Shuning uchun ham Jomiy o'z o'g'liga shunday ibratomuz she'riy misralar bilan murojaat qiladi:

Nodonlardek otangning qilganini pesh qilma,  
O'zingga sen hunardan o'zgani ota dema.

Tutun garchi otashning farzandi bo'lsa ham,  
Ne foydaki, tutunga otash ziyosi yuqmas<sup>8</sup>.

Jomiyning bu misralari "Qobusnoma"ning ushbu so'zlarini eslatadi: "Agar kishi har qancha oliy nasab bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Ulug'-lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo'ymishlar, sen unga g'arra bo'limg'il... Bu ot faqat bir nishonadin boshqa narsa emasdur. Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il"<sup>9</sup>. Bu fikrlar hali hanuz o'z qimmatini yo'qotmagan.

Bugun biz qo'llayotgan mazmundagi komil inson tushunchasi birinchi marta Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Muhiddin ibn Arabiy tomonidan muomalaga kiritilgan. Ibn Arabiyning fikricha, komil insonning yerdagi timsoli hazrati Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamadir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi<sup>10</sup>.

Shayx Aziziddin Nasafiy komil insonga ta'rif berar ekan, shunday yozadi: "Bilgilki, komil inson deb shariat, tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson

<sup>7</sup>Kaykovus "Qobusnoma". "O'qituvchi" nashrioti. T. 2011-y. 23-24-b.

<sup>8</sup>Abrurahmon Jomiy "Bahoriston". "Yangi asr avlod" nashrioti. T. 2007-y.

<sup>9</sup>Kaykovus "Qobusnoma". "O'qituvchi" nashrioti. T. 2011-y. 13-b.

<sup>10</sup>Najmuddin Komilov "Tasavvuf". T. "Movarounnahr" "O'zbekiston". 2009-y

shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga bo'sini Yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif<sup>11</sup>, sanagan sifatlarning uchtasi, ya'nli yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi xulq "Avesto"dan olingan. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyox va badkirdorlikdan chekinadi, hamma niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Aziziddin Nasafiy to'rtinchisi fift "maorif"ni, ya'nli Allohn'i tanish va tasavvufiy poklanish tatabini qo'shib qo'ygan. Uning fikricha, tariqat yo'liga kirgan soliklarning maqsad va vazifasi ushbu to'rt fazilatni egallashdir. Kimki "o'zida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolga erishadi". Nasafiyning mazkur ta'rifidan ikki xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, Nasafiy fikricha, komil inson hayotdan tashqarida bo'lgan allaqanday mavhum zot emas, balki aniq odamdir. Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam shunday martabaga ko'tarila oladi. Ikkinchidan, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo'li bilan erishiladigan yuksak martabadir.

Alisher Navoiy o'z davrining komil insonlarini "ahli ma'ni" deb bilgan. Navoiy deydiki: "Ahli suratlarga shoh bo'lguncha, ma'ni ahli yig'inida gado bo'lmoqliging yuz karra afzaldir". Shoirning fikricha, "ahli ma'ni" kishilar ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslardir.

Hazrati Alisher Navoiyning ideali ham aynan komil inson, mukammal shaxsning o'zi edi. Alisher Navoiyning quyidagi misralariga e'tibor bering:

Kamol et kasbkim, olam uyidin  
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.  
Jahondin notamom o'tmak biaynih  
Erur hammomdin nopol chiqmoq<sup>12</sup>.

Navoiyning ushbu fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi. Sharq allomalarining ushbu pand-nasihatga yo'g'rilgan purma'no fikrlari Sharqda o'ziga xos odob-axloq kodeksi hisoblangan.

<sup>11</sup>"Najmiddin Komilov "Tasavvuf". T. "Movarounnahr" "O'zbekiston". 2009-y. 133-134-b.

<sup>12</sup>A.Navoiy. "Tanlangan asarlar". T. 2011-y. 14-jild, 56-b.

## KOMILLIK TUSHUNCHASIGA IJTIMOIY TABAQALASHUVNING TA'SIRI

Tabaqalashgan, sinflarga bo'lingan jamiyatda komil inson shaxsiga qo'yildigan umumiyl talablardan tashqari har bir tabaqaning, sinfning o'z talablari bor. Kasbiy-malakaviy talablar komillikning barcha talablarini qanirab olmaysdi. U aynan muayyan kasb bilan shug'ullanuvchi yoki jamiyatda ma'lum bir martabani egallagan shaxsga bиринчи navbatda qo'yildigan talablardir. Bunda, albatta, o'z-o'zidan yuksak axloqiy talablar nazarda tutiladi.

Komil insonga har bir tabaqqa o'zining kasbiy-tabaqaviy talablarini qo'ygan. Ularni buzish yoki to'liq amalga oshira olmaslik katta kamchilik, o'sha kasb egalariga va o'sha tabaqaga isnod keltiradi, deb hisoblangan. Shu sababdan mustaqil faoliyat ko'r-satish uchun u yoki bu kosib avval o'sha jamoada qabul qilingan tartibga binoan, obro'-etiborli ustalardan tuzilgan o'ziga xos komissiyaga amaliy imtihon topshirgan, savollariga javob bergan. Bu nafaqat ustalikka da'vogar kishining kasbiy mahoratiga, yaratiladigan mahsulotlarining sifatiga, shuningdek, uning o'z kasbiy va oilaviy burchini anglashiga, mijozlar va xaridorlar bilan munosabat o'rnatishiga ham taalluqli bo'lgan.

Yapon samuraylarining ulug'vorligi va vatanparvarligini o'zida aks ettiruvchi "Busido"ni o'rganar ekanmiz, unda o'rta asrlar yapon xalqida samuray timsolida komillik sifatlari qay tarzda aks etganligining guvohi bo'lamiz. Samuraylar harbiy kasta edi. Ularning asosiy vazifasi o'z xojasini himoya qilish, uning uchun zarur hollarda jang qilish, jonini qurban qilish hisoblangan. Samurayning tarbiyasi shu vazifani bajarishga qaratilgan. Samuray har kuni ertalab sochini turmaklashi, so'ngra mashq qilishi va vaziyatga mos kiyinishi lozim. Ammo har kuni qaysi kiyimda bo'lishidan qat'iy nazar, belida kamari va ikkita qilichi bo'lmoq'i shart. Samuraylar o'z xojasiga sodiq bo'lgan, ular yoshligidan shunday ruhda tarbiyalangan. Har bir samuray o'limga tik qaragan va kurashda yengilsada, mardonavor, yuzida tabassum bilan jon bergan. Buni har bir samuray sharaf deb

bilgan. Ishonch, adolat va jasorat har bir samurayga xos fazilat hisoblangan<sup>13</sup>.

O'rta asrlarda diyorimizda kashovarz, kadivar va chokar kabi tabaqalar mavjud bo'lgan. Chokarlar ham bevosita samuraylarga o'xshash tabaqa hisoblangan. Ularning ham asosiy vazifasi vatani va o'z xojasini qo'riqlash, ularga sadoqat bilan xizmat qilishdan iborat edi.

Hindistonda rojalardan tashqari braxman, kshatriy, vayshiy, shudra kabi tabaqa (kasta)lar mavjud bo'lib, ularga ham turlicha kasbiy-tabaqaviy talablar qo'yilgan. Masalan, braxmanlar Hindistondagi yuqori mavqega ega tabaqa hisoblanadi. Ular diniy marosimlar, toat-ibodat bilan shug'ullanadilar. Kshatriylar esa jangchilar tabaqasi bo'lib, braxmanlar shug'ullanayotgan faoliyat bilan shug'ullanmaydilar, bunga ehtiyoj ham yo'q, o'z navbatida bu talab ham etilmaydi. Rojalar (podsholar, amirlar, beklar) ham kshatriylar tabaqasiga mansub bo'lib, o'z qo'li ostidagi fuqarolarni boshqargan va tajovuzlardan, turli dushmanlardan himoya qilgan.

Islom dinida ham xalq orasida ishlatiladigan oqsuyak va qoracha tabaqalari mavjud. Oqsuyaklar nufuzli tabaqalardan bo'lib, ushbu ibora diniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar – said, eshon, xo'jalarga nisbatan ishlatiladi. Qoracha esa oddiy xalqqa nisbatan ishlatiladigan ibora. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, ushbu tabaqalar katta ahamiyat kasb etmaydi, hayotda va dinda har bir inson kim va qanaqa tabaqaga mansub bo'lismidan qat'iy nazar, Yaratganning oldida tengdir.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlari komil insonga qo'yilgan umumiy va milliy talablardan tashqari, har bir toifaning xislatlaridan, har bir tabaqaning ahvoldan so'zlaydi, o'z kasbining ustasi qanday bo'lishi kerakligini bayon etadi.

Navoiy tabiblar to'g'risida shunday deydi: "Tabibga o'z ishida mahorat kerak va kasallar holiga shafqat, asli tibbga tabiatи uyg'un va donishmandlar so'ziga payrov va ergashgan bo'lsin. So'zida

<sup>13</sup>Нитобэ Инацо. "Бусидо – душа Японии". М. София. 2004 г.

yuminshoqlig' va lo'ngil ovlashlik, o'zida hayo va xushfe'llik bo'lsin. Shafqatli bolgan o'tkiz tabib Isoga o'xshaydi. Dami kasallarga davri va qadamni xastalarga shifodir. Uning ko'rimishi xaloslik xizri va sharbatli tirlidlic suvidir. Agar kasbiga mohir bo'lsayu, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qu'pol su'z bo'lsa, agarchi kasalga bir tomonidan davo qilur, ammto necha tomonidan kasalning mijoziga o'ngarish kirgizur. Lekin savodsiz tabib jallod shogirdidir, u tig' bilan, bu zahar bilan azoblovchidir".

Shirin so'z mohir tabib tan ranjiga shifodir,

Badfe'l, achchig'i tez va savodsiz tabib el joniga balodir<sup>14</sup>.

Kaykovus o'zining "Qobusnomा" asarida tib ilmi egalari oldiga shunday talablarni qo'yadi: "Agar tabib bo'lsang, tib ilmining usulini yaxshi bilg'il, nedurkim, bu ilm yaxshi ilmdur va ul foydali ihmilar jumlasidandir. Bilg'il, odamlarning tanasida nimaiki bo'lsa, yo' tabiatga tegishli bo'ladi, yoki tabiatdan tashqari bo'ladi. Tibbiyotni eng yaxshi narsasi dorini va kasalni bilishdur".<sup>15</sup>

Navoiy o'z kasbining egasi bo'lgan kotiblarga quyidagicha talab qo'yadi: "Kotib shoirlar so'zini varoqqa naqshlovchi va so'z xazinasini saqlovchi. Saqlovchining ishi topshirilganni saqlashdir va o'z bilgicha sarflash xiyonat bo'lur. Amonat topshirilgan kishi xiyonatga mansub bo'lsa, o'z ishida aybdor bo'lur, unday kishining qo'lini kesmoq yaxshidir. Muharrir, xoh bir bayt, xoh yuz bayt yozgani bilan tahriri tuzuk bo'lsa maqbul bo'lur. Agar yozuv shakli ko'rimsiz bo'lsa, o'quvchi va bilimli kishi undan qiynaladi".<sup>16</sup>

Yusuf Xos Hojib kotib qanday bo'lishi kerakligini quyidagicha bayon etadi:

Bek bilmasin qancha dono o'zini,

Kotiblar bitarlar, albat, so'zini.

Bekning kotibga sir aytmoqligi bor,

Bunga kotib bo'lsin albatta hushyor.

Sir tuta olsin, pok bo'lsin, vijdonli,

<sup>14</sup> A. Navoiy "Asarlar". 13-tom. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. T. 1966-y. 190-b.

<sup>15</sup> Kaykovus "Qobusnomा". "O'qituvchi" nashriyoti. T. 2011-y. 135-b.

<sup>16</sup> A. Navoiy "Asarlar". 13-tom. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. T. 1966-y. 192-b.

Ishonchda eng komil, bo'lsin iymonli.  
Kotibda bo'l sinkim bilim, aql-idrok,  
Xat, so'zi chiroyli, o'zi ezgu pok.  
Ichimlik ichmas, xush xulqli, bo'lsa pok,  
Yaroqsiz ishlardan yiroq tursa, pok.  
Kotib tun-kun bekning yonida,  
Shay tursin bek talab qilgan onida<sup>17</sup>.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida kotiblarga shunday talablar qo'yadi: "Kotiblikning yana bir sharti uldurki, kotib bo'lg'oningda hamisha podshoh huzurida hozir bo'lg'il va har ishning otini bilg'il. Barcha ishni imtihon qilg'il, devonning holidan ogoh bo'lg'il. Hamma amaldorning muomalalarin bilg'il. Podshohning sirini aytmag'il va har bir ishdin podshohni ogoh qilg'il"<sup>18</sup>.

Alisher Navoiy dehqonlar to'g'risida shunday yozadi: "Don sochuvchi dehqon yerni yorish bilan rizq yo'lini ochuvchidir. Agar to'g'rilik va tuzukligi bo'lsa, qoramoli Solih tuyasicha bo'lur. Dehqon agar to'g'rilik bilan don sochsa, haq biriga yuz eshigini ochadi. Bunday kishiga baxillikdan xoli bo'lmoq kerak, yolg'onchilik va qurumsoqlikdan chetlanmoq kerak.

Kimki dehqonchilikni kasb etdi,  
Uning qilar ishi non bermak bo'ldi.  
Bunday kishi daraja yuksakligi tufayli,  
Odam Ato bo'lmasa-da, odamgarchiligi bor"<sup>19</sup>.

"Qobusnoma"da dehqonchilik kasbi bilan shug'ullanuvchilarga shunday talab qo'yiladi: "Agar dehqon bo'lsang, barcha dehqondin bilimdonroq bo'lg'il va har bir ekinni eksang, vaqtidin o'tkazib ekmag'il. Agar vaqtidin o'n kun burun ekkaning ikki kun vaqtidin so'ng ekkandin yaxshiroqdur. Hamma vaqt yerni tarbiyat qilg'il, dehqonchilik peshasidin bahramand bo'lg'aysan"<sup>20</sup>.

<sup>17</sup> Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig". "Akademnashr". T. 2016-y. 228-b.

<sup>18</sup> Kaykovus "Qobusnoma". "O'qituvchi" nashriyoti. T. 2011-y. 157-b.

<sup>19</sup> A. Navoiy "Asarlar". 13-tom. G'afur G'ulom nomidagi badiliy adabiyot nashriyoti. 1966-y. 197-b.

<sup>20</sup> Kaykovus "Qobusnoma". "O'qituvchi" nashriyoti. T. 2011-y. 181-b.

## JADIDLAR FAOLIYATI VA JODIDA KOMIL INSON

O'n to'qqizinchı asr oxiqlarida, yurtimiz ziyorilari orasida jadidchilik g'oyalari vujudga keldi. Jadidchilik harakati namoyondalar ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari asosida milliy uyg'onish, o'zlikni anglash, komil inson va barkamol shaxsnı shakllantirish hamda tarbiyalashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yidilar. Chunki ular xalqning ongini yuksaltirmasdan, madaniyatli va ma'rifatli qilmasdan turib, milliy mustaqillikka erishih bo'lmasligini anglagan edilar. Shu sababdan jadidlar o'z harakatini dastlab ma'rifat va maorifdan boshladilar. Bu yo'lda jadidlar bir qancha ishlarni amalga oshirdilar. Maorif tizimining zamon talablariga mos tarzda isloh qilinishi, ya'ni yangi usul mакtablарining joriy etilishi va ushbu maktablarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarning o'qitilishi, "usuli jadid" darsliklarining yaratilishi, qirq kunda o'quvchilarning savod chiqarishi uchun "usuli savtiya"ning joriy etilishi, iste'dodli yoshlarning ta'l'molishlari va zamonaviy bilimlardan bahramand bo'lislari uchun G'arb va Sharqning taraqqiy etgan mamlakatlari - Rossiya, Germaniya, Turkiya, Yaponiya, Fransiya kabi davlatlarga o'qishga yuborilishi shular jumlasidandir. Maqsad dunyo yutuqlarini o'zlashtirish, jahon standartlariga javob bera oladigan milliy kadrlarni tayyorlash va shu orqali Turkistonni mustaqil hamda taraqqiy etgan davlatga aylantirish edi.

Mamlakatni qoloqlikdan, turg'unlikdan olib chiqish maqsadida ishni mакtab va ta'l'm islohotidan boshlagan jadidchilik harakati, tor ma'rifiy harakatdan, keng ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy harakatga aylandi. Shu jarayonda milliy matbuotga asos solindi, milliy teatr va zamonaviy adabiyot vujudga keldi. Bularning barchasi jadidlar faoliyatining mahsuli edi.

XX asr o'zbek adabiyoti va matbuotining atoqli namoyondasi, jadidchilik harakatining Turkistondagi asoschisi va rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Ehtiyoji millat" maqolasida "Boshqa millatlarga qaralsa ko'rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qitilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa

millatlarga poymol bo'lur"<sup>21</sup>, - deydi. Behbudiyning "Yoshlarga murojaat", "Muhtaram yoshlarga murojaat", "Ikki emas, to'rt lozim", "Millatlar qanday taraqqiy etarlar?", "Teyotr nadur" va Abdulla Avloniyning "Kim nimani yaxshi ko'rар", "Sanoye nafisa" maqolalari o'lkamizda chuqur ildiz otgan dogmatizm va mutaassiblikka barham berish, xalqni milliy mustaqillik, ozodlik, mafifat, taraqqiyparvarlik va komillik g'oyalari bilan milliy uyg'onishga undash, barkamol avlodni shakllantirishga bag'ishlangan.

Jadidlar o'z g'oyalarini "Tarjimon", "Oyna" jurnallari, "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Hurriyat", "El bayrog'i" va boshqa gazetalarda yozgan maqolalari, she'rlari, ilmiy va badiiy asarlari orqali targ'ib etdilar. Ular milliy tarbiya, vatanparvarlik va istiqlol g'oyalarini yoshlari ongiga va tafakkuriga o'z ona tilida singdirishga alohida e'tibor qaratdilar.

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,

Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,

Uxlama ko'p, o'zbek eli, asli taraqqiy vaqtida<sup>22</sup>,

O'zbek maorifi hamda teatr madaniyati tarixining yorqin namoyondasi Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Dardiga darmon istamas" nomli ushbu she'ri barchani "uyg'oqlikka" da'vat etadi. Shuningdek, Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Abdulla Qodiri, Munavvarqori, So'fizoda, Saidrasul Aziziylarning ham ijodi va faoliyati aynan milliy uyg'onishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Jadidlar milliy teatr sohasida ham katta yutuqlarga erishdilar. Behbudiyning "Padarkush", Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?", Fitratning "Abulfayzxon", Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" dramalari va boshqalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari XIX-XX asrlarda teatr san'ati bilan bir qatorda qiziqchilik va askiyabozlik, intermediya san'ati rivojlanganligini ham ko'rishimiz

<sup>21</sup> M. Behbudiy. "Ehtiyoji millat". "Tanlangan asarlar". T. "Ma'naviyat". 2006-y. 200-b.

<sup>22</sup> "Adabiyot". Majmuu. Cho'lpon nomidagi nashriot-matbaa ijodiy uyi. T. 2010-y. 107-b.

mumkin. Chunki aynan kulgi va qochirrimlar asosida jamiyatdagj muammolar va insonlarning ba'zi kamchiliklarni to'g'ridan-to'g'ri aytmasdan, ko'rsatib berish an'ana tusini olgan edi. Bu milliy mentalitetimizga xos jarayon hisoblanadi. Yusufjon qiziq Shakar-gubernatoriga xat yozib, farg'onalik san'atkoriarni chaqirtiradi. Amir tomoshalarda qozi va ulamolarni tanqid qiladigan asarlarni ko'rsatishga rozilik bermaydi. Shunda ular farg'onacha askiyalar qila boshlashadi, lekin hech kim kulmaydi. Amir tevaragidagi amaldorlar askiyani tushunmaydi.<sup>23</sup> Shu o'rinda qiziqchilik va askiyabozlikning turlari hududlar miqyosida rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jadidchilik harakatini qaysi bir yo'nalishda kuzatmaylik, asosiy maqsad milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash, komil inson va barkamol avlodni shakkantirishga borib taqaladi.

### KOMILLIK TUSHUNCHASINING MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq ta'lim tizimini isloh qilishga, har taraflama yetuk, barkamol avlod, komil inson, o'z Vatani va xalqiga sadoqatli, fidoiy fuqaroni tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratildi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shunga muvofiq ravishda, ta'lim tizimini zamon talablari darajasiga ko'tarish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi. Chunki ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zarur shartlaridan biri aqliy va jismoniy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy va huquqiy jihatdan har tomonlama yetuk, barkamol insonlarga ega bo'lishdir. Ma'naviy jihatdan yetuk inson, iymon-irodasi mustahkam, e'tiqodi yuksak, vijdon amri bilan yashaydigan komil shaxs, barkamol avlod har qanday davlat, xalq va millatning eng katta boyligi, qudratli salohiyat manbaidir.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida aytib o'tilganidek,

<sup>23</sup> A. Erkayev. "Tafakkur erkinligi" T. "Ma'naviyat". 2007-y. 131-b.

"Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsn ni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlari ga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqe-a-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak"<sup>24</sup>.

Mustaqillik yillarda komil inson to'g'risidagi nazariya va uslubiyat metodologik jihatdan mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da, "Barkamol avlod" Davlat dasturi hamda boshqa hujjatlarda har tomonlama ishlab chiqildi. Ularda o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, mustaqil fikrlovchi, irodasi baquvvat, iymoni-e'tiqodi butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashning aniq yo'l-yo'rqliari, ilmiy-nazariy asoslari belgilab berildi.

Shu yo'lida mustaqillik yillarda barkamol avlodni shakllantirish va komil insonlarni voyaga yetkazish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Uch bosqichli universiada musobaqalarining joriy etilishi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va "Kamalak" bolalar tashkilotlarining faoliyati, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida uzlusiz ta'lif tizimining joriy etilishi va ta'lifning insonparvarlashtirilishi, "Sog'lom avlod uchun", "Umid" hamda bir qancha boshqa jamg'armalar, Navoiy, Ulug'bek va Prezident stipendiyalarining tashkil etilishi, davlat granti asosida iqtidorli yoshlarning chet davlatlarida ta'lif olishi, bilim va ko'nikmalarni egallab, malaka almashinishing ta'minlab beriliishi, yurtimizda rivojlangan davlatlardagi Xalqaro universitetlar filiallarining ochilishi, shuningdek, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va boshqalar fikrimizning isboti, desak adashmagan bo'lamiz.

<sup>24</sup> I. Karimov. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz". 7-sid. T. "O'zbekiston". 1999-y. 381-b.

O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu neglzarlar:

- umuminsoniy qadriyatarga sodiqlite;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlan-

tirish;

- insonning o'z imkoniyatini erkin namoyon qila olishi;
- vatanparvarlik<sup>25</sup>.

Ushbu ma'naviy-axloqiy negizlarning xususiyatlarni o'zida mujassamlashtira olgan har bir inson, shubhasiz, barkamol shaxs bo'lib shakllanadi.

"Komil inson deganda, biz avvalo, engi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yisi, xulosasini mantiq asosida qurban kishi yetuk odam bo'ladi"<sup>26</sup>, - deb komil insonga ta'rif bergandi yurtimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Komil inson tushunchasi odamzotga xos ma'naviy hamda jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgu-likka chorlaydigan, olijanob umuminsoniy tushunchadir. Milliy g'oyamizning asosiya maqsadlaridan biri ham har tomonlama mukammal, komil insonni tarbiyalashdan iborat. Ushbu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun xalqni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning millatning kelajagi yo'q. Komil inson bu - ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, ezgu g'oyalar va o'z xalqi ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi shaxsdir.

Komil inson, har taraflama yetuk barkamol shaxslarni tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni nihoyatda katta. Aynan komil inson va barkamol shaxslar vatanimiz taraqqiyotining poydevori hisoblanadi. Hozirgi tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan bir sharoit-

<sup>25</sup>I. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" Toshkent "O'zbekiston". 1999-y.

56-b. <sup>26</sup>I. Karimov "Biz kelajagimizni o'z qo'llinniz bilan quramiz" 7-jild. T.

"O'zbekiston". 1999-y. 134-b.

da o'zbek xalqining o'zligini teran anglashi, Mustaqillikni mustahkamlash g'oyasini fuqarolar ongiga singdirish, ularda insosparsvarlik, vatanparvarlik va milliy iftixor hissi bilan bir qatorda, qat'iyat, mas'uliyat, burchga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish, yosh avlodni e'tiqodi mustahkam, barkamol inson etib tarbiyalash taraqqiyot talabi, hayotiy ehtiyojdir.

Ta'lim-tarbiya tizimida komil inson va barkamol shaxsni tarbiyalash talablari quyidagilardan iboratdir:

- yangicha tafakkur, erkin va mustaqil fikrlay olish, inson tafakkurining imkon darajada ilmiylik, innovatsion xarakter kash etishi, voqeа-hodisalarни, olamni obyektiv, ya'ni xolis aks ettrish, kechayotgan jarayon va voqealarga tanqidiy-tahliiy yondashish, ijodiy fikrashi;

- falsafiy dunyoqarash, ya'ni har bir narsaga har taraflama yondashish. Falsafiy dunyoqarash narsa va bodisalar, jarayonlarga qotib qolgan o'zgarmas obyektlar sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga, ichki ziddiyatlarga boy, o'xgaruvchan, rivojlanuvchan obyekt sifatida qarashni bildiradi. Uning asosida tarixiylik va mantiqiylikning mushtarakligi yotadi;

- ma'naviy-axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat;
- tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik;
- omilkorlik, ya'ni chora-tadbirlarni mustaqil holda qollay olish;

- fan yutuqlaridan hamda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalana olish va boshqalar.

Hozirgi vaqtida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi va uning yo'nalishlari zamirida ham bevosita yurtimiz istiqboli, kelajagi bo'lmish komil shaxs va barkamol avlodni shakllantirish masalasi yotadi. Harakatlar strategiyasi miqyosida olib boriladigan islohotlarning amaliy ko'rinishlaridan ayrimlari sifatida Maktabgacha ta'lim va Innovatsion rivojlanish vazirliklarining tashkil etilishi hamda "Yoshlar ittifoqi" faoliyatining yo'lga qo'yishlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bundan tashqari, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlar yangi tahrirlarining qabul qilinishi va boshqa bir qator yangi qonunlar qabul qilinayotgan-

ligi, ular ijrosiga alohida e'tibor qaratilayganligi bu boradagi ishfarning jadal ketayotganligini bildirish taridi. Ana shu davrda y'ol-yo'reqlar hozirgi kunda mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bugun mamlakatimizda yosh avlod va son tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bux ur'gil qolarning zamonaviy bilim olishimiz, yuksak madaniyatli bo'lin o'qishga ettirilmoqda.

Insoniyatning erkin fikrlashi, dunyoqarashining bengayish, aqlan yetuk bo'lishi, ma'navlyatining shakllanishiha kitob avlasi o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda yurtimizda kitob bilan bog'liq masalalarga ham yetaricha e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni har-kamol avlod va komil shaxslar qilib tarbiyalash maqsadida kitob o'qish masalasi biz yoshlar orasida keng targ'ib qilinganloqda. Turli kitobxonlik tanlovlari o'tkazilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvarda "Kitob mahsulolarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilib bo'yicha komissiya tuzish to'grisida" farmoyishi e'lon qilingandi. Yurtboshimizning ushbu farmoyishlari kitob mutolaasi yo'llida yoshlarni savodxonlikka undash, badiiy kitoblar o'qishga jeh qilish hamda ma'nan yetuk yosh avlod va barkamol shaxslarni tarbiyalashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

"Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, a'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umurninsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir"<sup>27</sup>, - deya ta'kidlaydi Prezidentimiz.

Hozirgi kunda har bir kasb egasidan professionallik, ya'ni mutaxassislik darajasi nihoyatda yuqori bo'lishi talab etiladi. Masalan, ta'lim sohasida o'qituvchi shaxsiga o'z kasbi sir-asrorlarini miridan-sirigacha bilishdan tashqari, kommunikativ muloqot qila olishi, psixologik jihatdan shaxsni tahsil qila olishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishi, til bilishi, kompyuterda ishlay olishi, har doim sergak, ogoh bo'lishi

<sup>27</sup> Sh. Mirziyoyev. "Milliy tarraqqiyot yo'limizni qat'lyat bilan davom ettirish. yangi bosqichga ko'taramiz". T. "O'zbekiston". 2018-y. 88-89-b.

va boshqa talablar qo'yiladi. Chevarlik bilan shug'ullanuvchi kasb egalariga esa sifatli, zamon talabiga mos bo'lgan, did bilan tikilgan, bir xillikka asoslanmagan, foydalanish uchun qulay kiyim-kechaklar yaratish talab etiladi va hokazo. Demak, har bir soha, har bir kasbning o'z qiyinchiliklari, sir-asrorlarini to'liq egallay oлган mutaxassis bugungi davrga mos xodim bo'la oladi.

O'zbekistonda uzlusiz ta'lif shunday tashkil etilmoqdaki, bo'lajak mutaxassis o'z kasbiga doir kerakli, chuqur bilimlarga ega bo'lib, keyingi mehnat faoliyati davomida mustaqil malakasini, bilimini oshirib borishga o'rganmog'i zarur. Bundan tashqari, davlat ham, tegishli tarmoq vazirliklari va idoralari, kompaniyalar ham mutaxassislar malakasini oshirish tizimiga egadirlar va o'z ishchi-xodimlariga bu borada yordam ko'rsatishni yo'lga qo'ymoqliklari shart.

Birinchi Prezidentimizning quyidagi fikrlari biz yoshlar uchun alohida ahamiyatga ega: "Bu dunyoda odam faqat qorin to'ydirish uchun yashamaydi. Odam avvalo odam ekanini amalda namoyish qilishi kerak. Shunday ekan, biz buyuk ajdodlarimiz bilan g'ururlanishimiz lozim. Shunga tayanib, yangi-yangi ufqalgarda otlanish zarur. Belni mahkam bog'lab, mana, men borman, deb maydonga chiqishga tayyor turish kerak. Mana shunday hissiyot bilan yashaydigan bolalarni men o'z farzandlarim deb gapirishdan hech qachon charchamayman."<sup>28</sup> Biz birinchi Prezidentimiz aytgan hissiyot bilan yashab, milliy o'zligimizni teran anglashimiz, bar-kamol avlod, komil shaxs bo'lib yetishishimiz, yangi-yangi marralarga intilishimiz, shu orqali ona-Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishimiz lozim.

Xulosa o'rnidagi aytish mumkunki, insoniyat asrlar davomida jismoniy sihat-salomatlilik bilan birga, ma'nnaviy komilllik va yetuklikni orzu qilib keladi. O'zining aql kuchi, tafakkur qudratini, bilimlari darajasini oshirishga harakat qiladi. Bu yo'lida qanchadan-qancha kitoblar yozilgan, kashfiyotlar qilingan, olamshumul yutuqlarga erishilgan. Komil inson azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, ma'nnaviyatining uzviy bir qismi hisoblanib kelgan.

<sup>28</sup>I. Karimov. "Ona yurtimizning baxtu, iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng olyi saodatdir". T. "O'zbekiston". 2015-y. 241-b.

Shu o'rinda aytib o'tmoq kerakki, komil inson shaxsiga qo'yiladigan talablar ham aniqlashib, zamonga mosiathib, beryib, kelayapti. Hozirgi kunda bu talablar yanada ortib berilmoqda. Endilikda komil inson shaxsiga qo'yiladigan talablar har tomonlama mukammal, diniy va dunyoviy ilmlarga ega, mustaqil, o'ziga shaxs bo'lish kabilardir. Umuman olganda, komil insonning bir-dan-bir, yagona qolipi yo'q. Lekin uning asosiy sharti bor. Komillik sifatlari insonning qilgan xayrli ishlari, halolligi, vatanparvarligi, vijdoni pokligi, qalbidagi ezgu maqsadlarida, go'zal xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Insonning komillik darajasiga yeta olishi bu shunchaki orzu emas, balki uning ezgulikka xizmat qilishi, ilmlarni o'zlashtirishi va rivojlantirishi, ezgu ishlar qilishi jarayonida erishishi mumkin bo'lgan aniq imkoniyat yoki yuqori darajadagi ma'naviy yetuklik hisoblanadi. Shunday ekan, uzlusiz ta'lim berish va maqsadli tarbiyalash orqali komillik sifatlariga ega bo'lgan barkamol insonlarni voyaga yetkazish mumkin. Bu oliy maqsad mamlakatimizdag'i ma'naviy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston". 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'llim to'g'risida"gi Qonuni ("Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"). T. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". ("Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"). T. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 1997.
4. Prezident SH. Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoni. 2017 y. 12-yanvar. "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 16-yanvar soni.
5. Prezident SH. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 10-fevral soni.
6. SH. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T. "O'zbekiston". 2018.
7. I. Karimov "Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz". 7-tom. T. "O'zbekiston". 1999.

22. Koryagin K. "Konfutsiy". Tarixiy-biografik ocherk. "Jahon adabiyoti" jurnali. 2015-yilning noyabr oyI soni.
23. Mahmudxoja Behbudiy "Ehtiyoji millat". "Tanlangan asarlar". T. "Ma'naviyat". 2006.
24. Najmiddin Komilov "Tasavvuf". T. "O'zbekiston". 2000.
25. Nitobe Inadgo "Busido – dusha Yaponii". M. Sofiya. 2004.
26. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig". T. "Akademnashr". 2016.
27. www.ziyonet.uz.
28. www.google.ru.
29. www.lex.uz.

## MUNDARIJA

Komillik haqida .....	3
Komillik to'g'risidagi ilk tasavvurlar: mifologiya, epos. "Avesto" ..	4
Sharq mutafakkirlari komillik haqida .....	8
Komillik tushunchasiga ijtimoiy tabaqaqlashuvning ta'siri.....	15
Jadidlar faoliyati va ijodida komil inson .....	19
Komillik tushunchasining mustaqil O'zbekistonda rivojlanishi.....	21
Foydalanilgan adabiyotlar .....	28

**ILMIY-USLUBIY NASHR  
Iqboloy FAYZULLAYEVA  
KOMILLIK – HAYOT MAZMUNI**

Muharrir Sh.Axmatov  
Texnik muharrir B.Eshmurodov  
Musahhih Sh.Axmatov  
Sahifalovchi K.Temirov  
Muqova bezakchisi T.Ergashev

Nashriyot litsenziyasi №AI 139, 27.04.2009. Terishga 16.06.2018-yilda berildi;  
Bosishga 30.07.2018-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84. Shartli bosma tobog'i – 1,20.  
Offset usulida chop etildi. Cambria garniturasi. Offset qog'ozzi. Nashr bosma tobog'i –  
2. 0. 2018 -shartnoma. 92-buyurtma. 100 nusxada. 32 bet.  
Erkin narxda.

“Nasaf” nashriyoti, 180118. Qarshi shahri,  
Mustaqillik shohko‘chasi, 22-uy.

“Qarshipoligrafnashr” MCHJda chop etildi.  
180118. Qarshi shahri, “O‘zbekiston ovozi” ko‘chasi, 33-uy.

8. I. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T. "O'zbekiston". 1999.
9. Abdulla Sher "Axloqshunoslik". Darslik. T. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati". 2010.
10. Abdurahmon Jomiy "Bahoriston". T. "Yangi asr avlodi". 2007.
11. Abdurahim Erkayev. "Tafakkur erkinligi". T. "Ma'naviyat". 2007.
12. Abu Nasr Forobi "Fozil odamlar shahri". T. "Yangi asr avlodi". 2016.
13. Abu Ali ibn Sino. "Risolai fil-ishq". "Sharq yulduzi" jurnal. M. Mahmudov va Z. Bahriiddinovlar tarjimasи.
14. "Adabiyot". Majmua. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T. 2010.
15. Alisher Navoiy "Asarlar". 13-tom. T. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1966.
16. Alisher Navoiy "Mukammal asarlar to'plami". T. "Fan". 1988.
17. Alisher Navoiy. "Tanlangan asarlar". T. 2011.
18. Aziziddin Nasafiy "Komil inson haqida to'rt risola". T. "Ma'naviyat". 1998.
19. Allanberginov H. "O'zbek adabiyoti tarixi". Ma'ruzalar matni. Nukus. 2011.
20. Homidov H. "Avesto fayzlari". T. 2001.
21. Kaykovus. "Qobusnoma". T. "O'qituvchi". 2011.